

**NEFT VA GAZ KONLARI GEOLOGIYASI HAMDA QIDIRUVI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 24/30.12.2019.GM.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**KURBONOVA MOXIGUL MAMASALIYEVNA**

**SURXONDARYO BOTIQLIGI PALEOGEN QATLAMLARINING  
NANNOPLANKTON QOLDIQLARI BO‘YICHA STRATIGRAFIYASI**

**04.00.05 – Paleontologiya va stratigrafiya**

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD) DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract Doctor of Philosophy (PhD)**

<b>Kurbonova Moxigul Mamasaliyevna</b> Surxondaryo botiqligi paleogen qatlamlarining nannoplankton qoldiqlari bo‘yicha stratigrafiyasi.....	3
<b>Курбонова Мохигул Мамасалиевна</b> Стратиграфия палеогеновых отложений Сурхандарьинской впадины по остаткам наннопланктона.....	19
<b>Kurbonova Moxhigul Mamasaliyevna</b> Surkhandarya depression stratigraphy of paleogene sediments by nannoplankton remains.....	35
<b>Нашр қилинган илмий ишлар рўйхати</b> Список опубликованных работ List of published works.....	38

**NEFT VA GAZ KONLARI GEOLOGIYASI HAMDA QIDIRUVI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 24/30.12.2019.GM.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**KURBONOVA MOXIGUL MAMASALIYEVNA**

**SURXONDARYO BOTIQLIGI PALEOGEN QATLAMLARINING  
NANNOPLANKTON QOLDIQLARI BO‘YICHA STRATIGRAFIYASI**

**04.00.05 – Paleontologiya va stratigrafiya**

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/GM102 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.ing.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) tarmog'iga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Kushakov Abdulla Romanovich**  
geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Xusanov Sultonboy To'xtayevich**  
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

**Djalilov Gafur Ganiyevich**  
geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)


**Yetakchi tashkilot:** **X.Abdullayev nomidagi geologiya va geofizika instituti**


Dissertatsiya himoyasi Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti huzuridagi DSc.24/30.12.2019.GM.41.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023 yil "28" dekabr soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-B uy; e-mail: igimigm@ing.uz.


Dissertatsiya bilan Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 4349 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-B uy, www.ing.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "15" dekabr kuni tarqatildi  
(2023 yil "20" oktyabrdagi 75–raqamli reestr bayonnomasi).



  
**T.X. Shoymurotov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, g-m.f.d.

  
**M.G. Yuldasheva**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, g-m.f.d.

  
**F.G. Dolgopolov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash huzuridagi bir martalik ilmiy seminarining raisi o'rinbosari, g-m.f.d.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda geologiya xizmatlari oldiga foydali qazilmalar konlarini qidirish va zaxiralarini ko‘paytirish maqsadida geologik-sur‘atga olish va geologiya-qidiruv ishlari samaradorligini oshirishda ortib borayotgan talablar bo‘yicha vazifalar qo‘yilmoqda. Shu munosabat bilan konlarni tavsiflovchi turli parametrlarga, jumladan, unumdor gorizontlar va qatlamlarni aniqlik bilan tabaqalash talablari ortib bormoqda. Shu sababli mikrofossillardan foydalangan holda zonal sxemalar paleogen formatsiyalarining oqilona va ajratilgan stratigrafik sxemalarini ishlab chiqishga imkon beradi, bu esa har xil turdagi mineral xom ashyo uchun geologik qidiruv ishlarining ishonchliligini ta‘minlaydi.

Hozirgi vaqtda dunyoda stratigrafik birliklarning bo‘linishi va o‘zaro bog‘liqligi, paleogen yotqiziqlarining tarkibi va shakllanish sharoitlarini o‘rganish, qazilma organizmlarning eng muhim guruhlaridan biri sifatida ohakli nannoplanktonni monografik jihatdan o‘rganish katta ahamiyatga ega. Ushbu muammolarni hal qilish uchun turli xil tadqiqotlar olib boriladi, jumladan: nannoplankton turlarining tarqalish chegaralarini belgilash; ularning taksonomik xilma-xilligini aniqlash va tarqalishini tahlil qilish; aniqlangan mahalliy birliklarning mintaqalararo korrelyatsiyasi uchun biostratigrafik salohiyatni baholash dolzarb muammo hisoblanadi.

Respublikada mahsuldor paleogen qatlamlarni tasdiqlash, yangi foydali qazilma konlarini izlash va qayta ishlash bilan birgalikda ilmiy yo‘nalishlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida<sup>1</sup> “ayrim hududlarda tabiiy va mineral resurslardan samarali va kompleks foydalanishni ta‘minlash...”ning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Shu munosabat bilan mahalliy stratigrafik sxemani batafsil aniqlash maqsadida nannoplankton asosida Surxondaryo botiqligi paleogenining biozonal sxemasini tuzish geologiya ishlari uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash darajasiga mos keladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3578-son qarorlariga, 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4401-son “Yer qa‘rini geologik o‘rganishni yanada takomillashtirish hamda mineral-xom ashyo bazasini rivojlantirish va ko‘paytirish bo‘yicha 2020-2021-yillarda Davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4401-son, 28, 2022 yildagi “2022-2026-yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli “Qidirish-razvedka ishlari hajmini tubdan oshirish, hususiy investorlar va yetakchi xorijiy

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-raqamli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni

kompaniyalarni keng jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, shuningdek, boshqa bu borada qabul qilingan huquqiy hujjatlar asosida ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi -VIII "Yer haqidagi fanlarga (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyolarni qayta ishlash)" muvofiq amalga oshirildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Nashr etilgan va fond materiallarini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, bir qator tadqiqotchilar nannoplanktonning tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanishgan, shu jumladan A.S. Grigorevich (Kavkaz va Qrim), E.M. Bogdanovich (qora dengiz mintaqasi), E.G. Gavtadze (Abxaziya), A.A. Salaya (Armaniston), E.E. Krayeva, S.A. Lyulyeva (qora dengiz), N.G. Muzilyev (Rossiya janubida), N.G. Muzilyev, E.A. Pijankova, K.A. Xodjamedov (Markaziy Osiyo), N.G. Muzilyev, A.R. Kushakov (O'zbekiston). Nannoplankton bo'yicha paleogen qatlamlarining batafsil stratigrafiyasini ishlab chiqish N.G. Muzilyev, K.A. Xodjamedov (Turkmaniston, Tojikiston), A.R. Kushakov, G.X. Salibayev, E.V. Pijankova (O'zbekiston) ilmiy ishlarida aks etgan.

Ayni paytda, O'zbekiston hududida ohakli nannoplankton juda kam o'rganilgan, hususan, Surxondaryo botiqligi uchun bunday ishlar olib borilmagan. Shu sababli, ohakli nannoplanktonni o'rganish uchun ochiq maydonlardan va burg'i quduqlaridan olingan kern namunalarni o'rganish mintaqaning biostratigrafiyasi uchun muhim bo'lgan nannoplankton komplekslari tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlash imkonini berdi. Olingan barcha ma'lumotlar Surxondaryo botiqligining paleogen nannoplanktonini monografik o'rganish va ularning biostratigrafik ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. O'z navbatida, bu dissertatsiya tadqiqotining mavzusini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qildi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti va Geologiya va neft va gazni qidirish instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 15/48 «Ohakli nannoplankton asosidagi O'zbekiston paleogenining zonal stratigrafiyasi» (2015-2018), 82-22 UNG «Kernlarni, shlamlarni va flyuidlarni (gaz, neft, kondensat va qatlamlararo suvlari) majmuaviy o'rganish» (2022-2025) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Surxondaryo botiqligining ohakli nannoplanktonlar asosidagi paleogen qatlamlarining biostratigrafik sxemasini batafsil yoritib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

paleogen nannoplanktonining zonal komplekslarini va stratigrafik sxemalarni o'rganish;

Surxondaryo botiqligining paleogen yotqiziqlarini o'rganish va namuna olish; laboratoriya tadqiqotlarini o'tkazish va mintaqaning o'rganilgan yotqiziqlaridan

nannoplankton turlarini aniqlash;

Surxondaryo botiqligining ohakli nannoplanktoni bo'yicha paleogenning zonal stratigrafik sxemasini tuzish, mintaqaviy va xalqaro shkala bilan o'zaro solishtirish;

hududning paleogen yotqiziqlaridagi ohakli nannoplanktonning monografik tavsifi.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekistonning Surxondaryo botiqligidagi paleogen qatlamlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** hududning biostratigrafik tafsilotlarini detallashtirish uchun Surxondaryo botiqligining paleogen yotqiziqlaridan olingan ohakli nannoplanktonlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda stratigrafik, litologik, paleontologik usullardan dunyoning boshqa mintaqalaridagi paleogen yotqiziqlaridan olingan nannoplankton haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish bilan taksonomik bog'liqligini aniqlash uchun foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Surxondaryo botiqligining paleogen qatlamlarida nannoplanktonlarning sistematik tuzilishi va stratigrafik tarqalishi aniqlangan;

Surxondaryo botiqligining paleogen yotqiziqlaridagi kesmalarning batafsil bo'linishi va o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi nannoplanktonning zonal shkalasi ishlab chiqilgan;

Surxondaryo botiqligidagi paleogen yotqiziqlarining mahalliy stratigrafik birliklari chegaralari ajratilgan va aniqlangan;

Surxondaryo botiqligidagi paleogen yotqiziqlarida 4 avlodga mansub 20 ta nannoplankton turi monografik tarzda tavsiflangan va taksonomik tarkibi aniqlangan;

ilk bor xorijdagi bir xil yoshli nannoplankton komplekslari bilan taqqoslash o'tkazildi va ishlab chiqilgan sxemaning, O'zbekistonning qo'shni hududlari sxemalari va Xalqaro stratigrafik shkala bilan mintaqaviy bog'liqligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mintaqaning paleogen stratigrafik birliklari, mahalliy stratigrafik sxema bilan o'zaro bog'liqligi chegaralarini to'g'ri aniqlashda Surxondaryo botiqligining paleogen yotqiziqlari uchun nannoplanktonning zonal sxemasi ishlab chiqilgan;

Xalqaro Stratigrafik Shkala bilan mintaqaviy bog'lanish uchun O'zbekistonning ayrim hududlari bilan korrelyatsiya qilishga asos sifatida paleogen nannoplanktonlarining ajratilgan zonal turlari aniqlangan;

quduq kesimlarini va ularning stratigrafik bo'linishini batafsil korrelyatsiya qilish uchun paleogen nannoplanktoni bo'yicha zonal bo'linishning stratigrafik sxemasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** 4 ta ochiq litologik-stratigrafik kesmalardan olingan 782 ta namunaning laboratoriya paleontologik tadqiqotlari, 3 ta quduqdan 50 ta kern namunalari, 516 ta mikrofauna qoldiqlari tahlili asosida nannoplanktonning 20 ta turi tavsifiga asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, birinchi marta, o‘rganilayotgan hududning paleogen yotqiziqlarini ajratish uchun zonal nannoplankton shkalasi taklif qilindi va nannoplankton asosida mahalliy biostratigrafik sxemaning boshqa mintaqalar sxemalari bilan o‘zaro bog‘liqligi amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, Surxondaryo botiqligi paleogen yotqiziqlarining tuzilgan stratigrafik sxemasi ilgari amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirish va nannoplankton bo‘yicha belgilangan biozonalar asosida hududning stratigrafik asosini yangilaydi, bu esa geologiya-qidiruv ishlari samaradorligini oshirishda, yonuvchi slanetsli, fosforitli, neft-gazli qatlamlarni yoshini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Surxondaryo botiqligi paleogen qatlamlari stratigrafiyasi nannoplankton bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nannoplankton asosida paleogen yotqiziqlarining biostratigrafik sxemasi “O‘zbekgeologiya” AJ amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat geologiya qo‘mitasining 2022 yil 15 iyuldagi 05-40-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mintaqaning paleogen stratigrafik birliklari mintaqalararo korrelyatsiyasi amalga oshirish imkonini bergan;

Surxondaryo botiqligi paleogen yotqiziqlari nannoplanktonlarining stratigrafik tarqalish sxemasi “O‘zbekgeologiya” AJ amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya qo‘mitasining 2022 yil 15 iyuldagi 05-40-son ma‘lumotnomasi). Natijada, nannoplankton komplekslarining taksonomik mansubligiga qarab ularning chegaralarini aniqlash imkonini bergan;

Surxondaryo mintaqasining yangilangan biostratigrafik shkalasi nannoplankton bo‘yicha paleogen yotqiziqlarining biostratigrafik sxemasi detallari asosida “O‘zbekgeologiya” AJ amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi davlat geologiya qo‘mitasining 2022 yil 15 iyuldagi 05-40-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Surxondaryo botiqligida paleogen yotqiziqlari kesimini biostratigrafik batafsil aniqlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi:** Tadqiqotlarning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi:** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy maqola chop etilgan. Shundan 5 ta maqola ilmiy jurnallarda, 5 ta tezis O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan, 2 tasi respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:** Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va unga bo‘lgan talab, tadqiqotning maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining



ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga qo‘llanilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Surxondaryo botiqligi paleogen qatlamlarining o‘rganilganlik holati”** deb nomlangan birinchi bobida paleogen yotqiziqlari va nannoplanktonlarni o‘rganish masalalari ko‘rib chiqilgan. Surxondaryo botiqligini va unga tutash hududlarning geologik tuzilishi bo‘yicha tadqiqotlar I.V.Mushketov, V.A.Obruchev, R.F.Gekker, O.A.Rijkov, G.D.Romanovskiy, A.G.Babayev, A.M.Akramxodjayev, N.S.Shatskiy, A.P.Markovskiy, O.S.Vyalov, N.P.Tuayev, S.N.Simakov, B.I.Pinxasov, I.A.Pyanovskaya, V.I.Zonov, V.S.Korsakov, V.I.Popov, K.K.Pyatkov, A.K.Pyatkov, R.R.Usmonov, V.I.Troiskiy, M.Ye.Podobnaya, X.Sarbayev, A.V.Tolokonnikov, A.A.Abidov, F.G.Dolgopolov, N.L.Chvanov, R.R. Usmonov, G.S.Abdullayev, B.B.Sitdikov, D.X.Ataboyev, T.L.Babadjanov va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Hududning stratigrafiyasi, faunasi va paleoekologiyasi masalalari I.V. Arxangelskiy, Yu.B.Aysanov, A.K.Buxarin, I.G.Belenkaya, I.A.Korobkov, A.I.Osipova, S.X. Mirkamalova, L.V.Mironova, G.X. Kim, M.E. Egamberdiyev, A.M.Akromxodjayev, A.A.Abdusamatov, R.K.Makarova, U.M.Rasulov va boshqa tadqiqotchilarning ko‘plab ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Ohakli nannoplankton 1950-yillardan boshlab tizimli ravishda o‘rganilib kelinmoqda.

O‘z nomidan kelib chiqqan holda “nanno”- ya’ni karlik, mayda 30-50 mikron kattalikdagi (tilla rang suv o‘tlari) tushuniladi. Nannoplanktonlarning asosiy, xilma-xil va ko‘p sonli guruxi oxaktoshli skeletga ega kokkolitoforidlardir. Oltin-jigarrang xromatoforlarning mavjudligi va fotosintez qilish qobiliyati ularning tilla rang suv o‘tlariga mansubligini ko‘rsatadi.

Keyingi o‘n yillikda AQSh va Yevropaning turli mintaqalaridagi paleogen yotqiziqlari uchun nannoplanktonga asoslangan mahalliy stratigrafik sxemalar paydo bo‘ldi (Bronnimann va Stradner, 1960; Bramlette va Sullivan, 1961; Sullivan, 1964, 1965; boshqalar). Natijada E. Martini (1971) va D. Bakri (1973; 1975) «standart» sxemalari asosida mintaqaviy zonal shkalalarning bir qancha turlari yaratildi. Rossiyaning janubi uchun nannoplanktonga asoslangan paleogen stratigrafik shkalasi N.G. Muzilyev (1980) tomonidan ishlab chiqilgan. U avvalroq Yevropa va Shimoliy Amerikaning mo‘tadil kengliklaridagi qit’alarda tarqalgan yotqiziqlar uchun yaratilgan Martini shkalasidan va chuqur okean burg‘ulash materiallari bo‘yicha D. Bakriy tomonidan ishlab chiqilgan shkaladan foydalangan.

O‘rta Osiyo hududida, jumladan, O‘zbekistonda N.G. Muzilyev, E.V. Pijankova, K.A. Xodjaxmedov, I. Tabachnikova, N.V. Averborg, S.P. Shumenko, A.R. Kushakov va boshqalar nannoplankton turlarining komplekslarini o‘rganib, shu asosda paleogenning biostratigrafik sxemalarini tuzdilar.

A.R. Kushakovning ilmiy tadqiqot ishlarida nannoplanktonning sistematik qismi Ustyurt, Qizilqum, Toshkent oldi va O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysi tayanch kesimlari bo‘yicha to‘liq aks ettirilgan. Nannoplankton bo‘yicha paleogen

qatlamlarini biostratigrafik tadqiq qilish tafsilotlariga qaramay, Surxondaryo botiqligida yetarlicha ishlar olib borilmagan.

Dissertatsiyaning **“Surxondaryo botiqligi paleogen qatlamlarining yangi paleontologik ma’lumotlar asosida stratigrafiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobda, hududning paleogen yotqiziqlarining geologik-tektonik tuzilishi va stratigrafiyasi berilgan. Nannoplanktonni ajratish va o’rganish uchun biostratigrafik tadqiqot usullari qo’llanilgan. Ushbu usullar yordamida nannoplankton turlari aniqlandi, bo’limlar ajratildi va ularning Xalqaro stratigrafik shkala bilan bog’liqligi amalga oshirildi. Olingan natijalar asosida Surxondaryo botiqligining paleogen yotqiziqlari biostratigrafik shkalasini batafsil yoritib berishga imkon bo’ldi.

Geologik jihatdan Surxondaryo botiqligi Sharqda Zorkossa-Korsogli zonasi bilan chegaralangan bo’lib, shimoli - sharq tomonga cho’zilgan antiklinal ko’tarilishlar mavjud. Zonaning uzunligi 135 km, eni 6,5 km. Shimolda Buxoro-Gissar chuqur yorig’i chegara hisoblanadi. G’arbda Qo’gitang-Boysuntog’ ko’tarilish tizimi, janubda esa Amudaryo vodiysi bilan chegaralangan.

Hududning tektonik tuzilishini to’rtta tarkibiy-tektonik elementlar aks ettiradi bular, Boysun, Kelif-Sariqamish, G’arbiy-Surxon va Sharqiy-Surxon. Cho’kindi qopqoq asosan platformaning rivojlanish bosqichida shakllanadi. Yura, bo’r va paleogen cho’kindilarining cho’kishi davridagi tektonik harakatlar kichik amplitudalar bilan tavsiflanadi.

Surxondaryo botiqligida paleogen qatlamlari keng tarqalgan bo’lib, ular tarkibida organik qoldiqlarning boy komplekslari-foraminiferalar, ikki tavaqalilar, ostrakodalar va boshqalarni o’z ichiga olgan terrigen va karbonatli yotqiziqlar bilan ifodalanadi. Umumiy qabul qilingan sxema bo’yicha paleogen qatlamlari kesimi paleotsen, eotsen va oligotsen bo’limlari bilan ifodalanadi. Qatlamlarning qalinligi janubga qarab ortib boradi va 300 m ga etadi.

Paleogen davridagi litobiostratigrafik xususiyatlariga ko’ra, organik qoldiqlar majmuasi bo’yicha umumiy stratigrafik shkala bilan solishtirilganda svitalar ajratilgan: Oqjar svitasi (dat va zeland yaruslari); buxoro svitasi quyi qismi (tanet yarusi); givar svitasi yuqori qismi (tanet) va quyi qismi (lyutet yaruslari); oloy - quyi qism (lyutet yarusi); turkiston-o’rta qism (lyutet) va quyi qism (barton yaruslari); rishton - yuqori qismi (barton yarusi), guliob - (priabon yarusi).

Hozirgi vaqtda svita chegaralarining yoshini aniqlash va hududdagi paleogen yotqiziqlarining stratigrafik sxemasini yangilash uchun ohakli nannoplanktonlarni o’rganish zarurati tug’iladi. Bobotog’, Anorbuloq, Besharcha kesmalari doirasida hududning paleogen qatlamlari kesimlarini o’rganish davomida birinchi marta ohakli nannoplankton komplekslari ajratib olindi va tavsiflandi.

Dissertatsiyaning **“Surxondaryo botiqligining paleogen qatlamlaridagi nannoplankton qoldiqlarini biozonalar bo’yicha tabaqalanish”** deb nomlangan uchinchi bobida nannoplankton asosida paleogen biostratigrafiyasi tarixi, tadqiqot natijalari, hududning paleogen yotqiziqlari nannoplankton zonalari tavsifi, o’rganilayotgan hududning kesmalari mintaqaviy va xalqaro shkala bilan taqqoslangan. Hududning nannoplanktonini zonal sxemasi indeks turlarining

paydo bo'lishi va yo'qolishi asosida tuzilgan, ularning har birining mavjud bo'lish vaqti stratigrafik bo'linma yotqiziqlarining hosil bo'lish vaqtidan sezilarli darajada oshadi yoki ularning yo'q bo'lib ketishi ushbu zonaning chegaralarida kuzatiladi.

Birinchi marta N.G. Muzilyev (1980) tomonidan tuzilgan nannoplankton b'yicha paleogen stratigrafik shkalasi O'zbekistonda ham, xorijda ham paleogen stratigrafik birliklarini ajratish va mintaqalararo korrelyatsiya qilishda keng qo'llaniladi.

Kesmalar va burg'i quduqlaridan olingan kern namunalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar Surxondaryo botiqligining paleogen yotqiziqlari nannoplankton turlari ko'rsatkichlarini aniqlash va tavsiflash imkonini berdi. Aniqlangan tur indeksleri N.G. Muzilyev shkalasining nannoplankton zonalari bilan to'liq bog'liq. Quyida paleogen yotqiziqlari va ohakli nannoplankton komplekslarining tavsifi keltirilgan.

**Oqjar svitasi-P<sub>1</sub><sup>d z ak</sup>.** Surxondaryo botiqligidagi Dat yarusi yuvilgan. Zeland yarusi (yoki oqjar svitasi) faunali hayvonot dunyosi, gips, dolomit va ohaktosh qatlamlari terrigen jinslar bilan ifodalanadi. Umumiy qalinligi 206 m gacha. Gips yotqiziqlari Anorbuloq, Sherobod, Boysun va boshqa hududlarda uchramaydi, bu yerda yotqiziqlar tanaffus bilan kuzatiladi va kesma qalinligi 12-15 m gacha qisqaradi. Boshqa hududlarda paleogen yotqiziqlari (Oqtov, Anorbuloq-Besharcha, Guliob) 90 m gacha qalinlikda, burg'ulash ma'lumotlariga ko'ra ba'zi burg'i quduqlarda 150 m gacha ortib boradi. Organik qoldiqlar orasida, hususan, mollyuscalardan *Barbatia tenuidentata*\* Hnd. *B.faxensis*\* Ravn. *B.forchammeri*\* Lundqr. *B.praescabra* (Koen.) *B.(Acar) lamelosa tabulata* Vinc. *Glycymeris terebratularis* Lam. *Lima dotata* Gorb. *L.holzapfeli*\* Hnd. va boshqalar (Abdusamatov, 1999-2002 y.) uchraydi. Oqjar svitasidan aniqlangan mollyuscalar majmuasi Qizilqumning, Buxoro botiqligining, shu jumladan Daniya, Shvetsiya, Belgiya, Rossiya stratotipik kesmalarining dat va zeland yaruslari qatlamlari bilan taqqoslash imkonini beradi.

Oqjar svitasi bo'r yotqiziqlarining yuvilgan yuzasiga va buxoro svitasiga muvofiq yotadi.

Burg'i quduqlaridan va tadqiqot maydoni ochilmalaridan olingan namunalarni o'rganishda oqjar svitasi mikrofaunasidan faqat ostrakodalar topilgan, nannoplankton qoldiqlari qayd etilmagan.

**Buxoro svitasi-P<sub>1</sub><sup>2t bh</sup>.** Yuqori paleotsen yotqiziqlarining quyi qismi buxoro svitasiga tegishli bo'lib, ular oqjar svitasiga muvofiq yotadi, umumiy qalinligi 300 m bo'lgan ohaktoshlar, dolomit va gips bilan ifodalanadi. Buxoro svitasi yotqiziqlari quyi qismida karbonat-sulfat yoki karbonat terrigen jinslari bilan, yuqori qismida esa gilli mergel jinslar bilan ifodalanadi.

Tadqiqot hududida sulfid-karbonatli jinslar Surxondaryo botiqligi kesmalarining yuqori qismini tashkil etadi. Qazilma qoldiqlari orasida mollyuscalar qayd etilgan: *Lucina duponti* Cossom va boshqalar, nummulitlar: *Nummulites solitarius dela* Harpe. N., *Daserlidela solitarus* Harpe, N. va boshqalar. L.Z. Mironova va G.P. Kreydenkov (1960) lar ushbu svitadan quyidagi mollyuskalar faunasini ajratib ko'rsatishgan: *Corbis daviasoni* Dech.,

*Nemocardium edvansi* Dech., *Cyprina morisi* Aow. *Gryphaea Antigua* Schwetx, *Phologomoya cuneata* Sow. *Turritella kamischi insis* Netsch., bu esa o'z ichiga olgan yotqiziqlarning quyi paleotsen yoshini ko'rsatadi va ularni Buxoro botiqligi yotqiziqlari bilan solishtirishga imkon beradi. Ushbu svita hududning g'arbiy qismidagi kesmalarda mavjud emas.

Buxoro svitasi yotqiziqlarida ikkita zonaning nannoplankton komplekslari ajratilgan: *Heliolithus kleinpelli* (NP-6), *Discoaster gemmeus* (NP-7), *Heliolithus riedeli* (NP-8), ular O'zbekiston kesmalarida juda yaxshi kuzatilgan (Kushakov, 1999). Buxoro svitasi bilan givar svitasi bir-biriga muvofiq yotadi.

**Givar svitasi**–  $P_1^2$ - $P_2^2$  1 gv. Janubiy O'zbekiston doirasida yuqori paleotsen qatlamlarining yuqori qismi givar svitasiga tegishli bo'lib, to'q kulrang karbonatsiz gillardan iborat, pirit va tolali fosforitning kaolinlashtirilgan kristallari uchraydi. Qalinligi 0,7 m gacha bo'lgan gilli slanets qatlamlari qayd etilgan. Givar svitasining umumiy qalinligi 37-195 m ni tashkil qiladi.

Surxondaryo botiqligida givar svitasi ohaktosh va dolomitlardan iborat. Ularning qalinligi 42 m. Ushbu svitada mollyuskalarning: *Pycnodonta antiqua*, *P. antiqua sartaganica*, *Ostrea hemiglobosa* *Pycnodonta camelus*, *Ostrea turkestanensis* (Abdusamatov, 1999-2002 y.) kabi qoldiqlari uchraydi. Quyi eotsen qatlamlarida *Globorotalia subbotinaeu*, *Gl.araganensis* foraminiferalarining aglutinlangan va sekretiya qobig'i qayd etilgan. Yuqoridagi ikki tavaqali mollyuskalar kompleksi ipr yarusiga, foraminiferalar esa yuqori tanet yarusiga xosdir.

Hududning givar svitasi nannoplankton majmuasiga juda boy va quyidagi zonalar bilan ifodalanadi: *Discoaster multiradiatus* (NP-9), *Marthasterites contortus* (NP-10), *Discoaster binodosus* (NP-11) va *Marthasterites tribrachiatus* (NP-12) , ularning orasida tarqalganlari: *Discoaster salisburgensis* Stradner, *D.lenodosus* Mert., *Chiasmolithus bidens* (Braml. et Sull.), *C.grandis* (Braml. et Ried), har-xil zonada *Discoaster diartypus*: *Coccolithus eolelagicus* Braml. et Ried., *C.crassus* Braml. Et Sull., *Discoaster saliburgensis*( Braml. Et Ried., *D.elegans* Branl. et Sull., *D. strictus*, *D. binodosus* Mart., *D. diastypus* Braml. Et Sull.? *Chiasmolites expansus* Braml, *Ch. grandis.* et Ried., *Ch. bidens*, *Neochias Tozygus distentus* Braml.et Sull., *M.bramlitte broon.* Et Strad., *Iniperasterobscurus* Mart., *Micrantolithus intaster* *Tranversopontes pulcher* (deflandre), *Neococcolites dibus* (deflandre), *Cycoccolitina Formosa* Kampther.

Svitaning yuqori chegarasi givar mergellari bo'ylab o'tadi.

**Oloy svitasi**- $P_2^2$ 1 al. Surxondaryo botiqligida o'rta eotsen oloy svitasi mergellar, ohaktoshlar, dolomitlar, slanetslar, gilli-qum va ohakli-qum kulrang-yashil rangdagi qatlamlardan iborat. Svitaning umumiy qalinligi 160 metr. Foraminiferalar va mollyuskalar kompleksi bo'yicha *Acarinina bullbrooki* (yuqori) va *Ostrea turkestanensis* (Abdusamatov, 2002 y.) zonaları Rossiya, Qozog'iston va G'arbiy Yevropaning o'rta eotsen (lutet yarusi) qatlamlari bilan taqqoslanadi.

Oloy svitasida nannoplankton majmuasining: *Discoaster lodoensis* (NP-13) zonasi ajratildi. *Cruciplacolithus staurion* Bram.et Sull., *Reticulofenestra coenura*

Rheinhardt, *Braarudosphaera bigelowi* Deflandre, *Discoaster deflandrei* Bram. et Ried. Ushbu majmuada quyidagilar aniqlandi: *Neichiastozygus distentus* Braml. et Sull., *Transversopontis pulcher* Deflandre, *Pontosphaera plana* Braml. et Sull., *Reticulofenestra umbilica* (Levin), *Reticulofenestra sp.sp.*, *Sphenolithus radians* Defl., *Zigodiscus biogatus* Defl., *Cyclococcolithina formosa* (Kamptner), *Coccolithus eopelagiacus* Braml. et Sull., *Coccolithus crassus* Braml. et Sull.

**Turkiston svitasi-P<sub>2</sub><sup>2</sup> I-b tr.** Oloy svitasi yotqizilari bilan muvofiq yotadi va 160 m gacha bo'lgan mergel qatlamlaridan yashil-kulrang, alevritli gillardan iborat. Ikki tavaqali mollyuskalardan quyidagilarni o'z ichiga oladi: *Fatina bohmi-Liostrea kokanensis*, *Fatina esterhazyi gamma.*; foraminiferalardan: *Popovia hirta* Sul., *P.rugosa* Sul., *Haplophragmoides orfaensis* Rod., *Gaudryinopsis superturkestanicus* N.Byk., *Gavelinopsis ferganensis* N.Byk., va boshqalar. (Abdusamatov, 2002 y.) Mollyuskalar majmuasi Farg'ona botiqligining turkiston svitida topilgan lutet yarusining fauna qoldiqlariga o'xshaydi. Foraminiferalar zonalarini tadqiqot hududining yuqori qismini berton yarusiga kiritishga imkon beradi.

Turkiston svitasida nannoplankton majmuasining: *Discoaster sublodoensis* Bram. et Sull., (NP-14), *Nannotetrina fulgens* (NP-15), *D.taninodifer* Bram. et Ried., *Rhabdosphaera inflata*, *Discoaster mirus*, *Cruciplacolithus crux*, *Chiphragmalithus calatus*, *Discoaster deflandre* Braml. et Ried., *Discoaster sublodoensis* Braml. et Sull., *Discoaster kupperi* (Stradner), *Nanninfula deflandrei* zonalarini mavjudligi aniqlandi.

Zonalarda uchraydigan turlar *Discoaster kupperi* Strad., *Helicopontosphaera seminulam* Braml. et Sull., *Cyclococcolithina gammetion* (Braml. et Sull.). Zonaning chegarasi ushbu turlarning paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Shuningdek, *Lygodiscus bijgalus* Deflandre, *D.sublodoensis*, *Sphenolithus radians*, *Reticulafenestra sp.* turlari ham aniqlangan.

**Rishton svitasi-(P<sub>2</sub><sup>2</sup> b rš).** Turkiston svitasiga muvofiq holda, ba'zi joylarda yuvilgan yuzasiga yotadi va guliob svitasi bilan muvofiq holda, neogen yotqizilari yuvilgan yuzasiga to'g'ri keladi. Yotqizilqlar och yashil gil, ohaktosh, och kulrang mayda donali qumtoshlardan iborat. Rishton svitasining umumiy qalinligi 45 metrgacha yetadi. Ushbu hudud (Sherobod) tog' tizmalari atrofida yashil-kulrang karbonatsiz alevrolitli gillar, kesmalarining yuqori qismi 0,5 metrgacha qizil gil qatlamlari bilan ifodalanadi.

Ushbu svitada quyidagi foraminifera zonalarini ajratilgan: *Asianella vialovi*-*Popovia rugosa* Sul. *P.hirta* Sul. *Bolivinopsis turgaicus* (Balakhm.), bu esa Qizilqum, Buxoro botiqligi, Janubiy Orolbo'yi, Rossiyaning berton yarusi yuqori qismlari bilan taqqoslashga imkon beradi.

Rishton svitasining kesmalarida quyidagi mollyuskalar aniqlangan: *Ostrea simplex* Desh. *Chlamys sokhiensis* Korob., bu ularni Farg'ona botiqligining shu nomli qatlamlari bilan taqqoslashga imkon beradi.

Anorbuloq-Besharcha, Guliob, Oqtov, Boysun, Sherobod kesmalarining ochiq ko'tarilmalaridan olingan namunalarni o'rganish natijasida rishton svitasi nannoplankton majmuasining quyidagi zonalarini mavjudligi aniqlandi: *Discoaster*

*bifax* (NP-16), *Discoaster saipanensis* (NP-17), *Ellipsolithus distichus*, *Ch.solitus*, *Coccolithus pelagicus*, *Rhabdosphaera cuspis*, *Chiasmolithus danicus*, *Nanninfula deflandrei*., *Corannulus germanicus* (namunalar).

Dasmanog'a, J.Mirshodi, Tog'aybuloq burg'i quduqlaridan olingan kern namunalari o'rganilganda rishton svitasida nannoplankton majmualari mavjudligi aniqlandi va quyidagi zonani o'z ichiga oladi: *Discoaster bifax* (NP-16), *Coccolithus pelagicus*, *Discoaster saipanensis* (NP-17), *Rhabdosphaera cuspis*, *Nanninfula deflandrei*, *Reticulofenestra umbilica*.

**Guliob svitasi-P<sub>2</sub><sup>3</sup> p gl.** Guliob svitasining tarqalishi hamma joyda mavjud emas, unga ko'ra rishton svitasiga muofiq yotadi va yuvilgan neogen qatlamlari bilan yopadi; ko'pincha u tadqiqot hududining katta qismida yuvilgan. Yotqiziqlar yashil-kulrang gillardan iborat, ularning yuqori qismi qizil-jigarrang, qalinligii 80 m gacha.

Svita tarkibida dengiz ikki tavaqali mollyuskalari mavjud bo'lib, quyi qismida: *Nucula aralensis* Luk., *N.turgaica* Miron., *Nuculana crispate* Koen., *N.alexeevi* Miron et Jark., *Pseudoamussium corneum* Sow., *Ostrea plicata* Sol.; yuqori qismida: *Nuculana crispata* Koen., *N.alexeevi* Miron. et Jark., *N.cf. perovalis* Koen., *Pecten karadarjensis* Korob.(Abdusamatov, 2002 y.) Mollyuskalar majmuasi tadqiqot hududiining guliob svitasini Hisor tizmalari va Farg'ona botiqligining Janubi-G'arbiy yotqiziqlari bilan taqqoslash imkonini beradi.

Bu yerda nannoplankton majmualaridan: *Chiasmolithus oamaruensis* (NP-18) va *Ismolithus recurvus* (NP-19) zonalari yuqori eotsenga tegishliligi aniqlandi.

Surxondaryo botiqligining paleogen yotqiziqlari nannoplanktonini o'rganish shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan nannoplankton komplekslariga g'arbiy Yevropa, Shimoliy Kavkaz va Qrimning paleotsen va eotsenga xos bo'lgan turlarini o'z ichiga oladi, ularni zonal sxemalar bilan taqqoslash mumkin. Bu o'rganilayotgan hududning nannoplanktoni uchun tuzilgan biozonal paleogen sxemasini mintaqaviy va xalqaro shkala bilan taqqoslash imkonini berdi.(1-rasm.)

Dissertatsiyaning **“Nannoplanktonlarning ba'zi zonal va xarakterli turlarining tavsifi”** deb nomlangan to'rtinchi bobda bir qator tadqiqotchilar tomonidan qo'llanilgan stratigrafik tadqiqot metodologiyasi va ohakli nannoplanktonni sistematik tavsifiga oid ma'lumotlar umumlashtirilib, Surxondaryo botiqligi kesmalaridan olingan paleogen nannoplanktonining monografik tavsifi berilgan.

Uslubiy jihatdan majmua biostratigrafik tahlili quyidagi ish hajmini o'z ichiga olib, har bitta qatlamdan namuna olish va tizimli o'rganish, o'rganilayotgan kesmalar doirasida turli fauna majmualarini aniqlash sistematalash, fauna majmualaridagi o'zgarishlarning qonuniyatlarini va obyekt bo'ylab organik qoldiqlarni tizimli tarkibini o'rganish, faunaning asosiy guruhlari va ularning stratigrafik, paleogeografik tarqalishi hususiyatlarini monografik o'rganishdan iborat.

Nannoplanktonning mavjud tasnifi faqat kokkolitlar va nannolitlarning tashqi morfologiyasiga asoslangan (Muzilyev, 1980). Barcha tizimli va tavsifiy

ishlarda (Bramlette, Sullivan, 1961; Bramlette, Martini, 1964; Hayetal., 1966; Hay, Mohler, 1967; Stradner, Edvards, 1968; Haq, 1966, 1988, 1969; Perch-Nielsen, 1971a; Locker, 1972; Sherwood, 1974; va boshqalar) hozirgi kunda ma'lum bo'lgan nannoplankton taksonlari kokkolitoforidlarga tegishli (Muzilyev, 1980).

Nannoplankton sistemikasi bo'yicha o'rganilgan ishlar asosida Surxondaryo botiqligining paleogen yotqiziqlaridan olingan nannoplanktonning monografik tavsifi berilgan.

XSSH 2015	Zonal XSK. (pustanavlaniya MsK, 24.1989y.2001)		Mintaqaviy stratigrafik shkala		Surxondaryo botiqligi paleogen yotqiziqlarini ajratish va korrelyatsiya qilish																
	bo'lim	bo'yicha	NP	foraminiferalar	Surxondaryo botiqligi	horizont															
	plankton foraminiferalar bo'yicha	nannoplankton bo'yicha		Averburg N.V., 2007-y.	Nannoplankton Kurbonova M.M., 2023-y.	Svytalar															
Neogen																					
N <sub>1</sub> N <sub>2</sub>																					
paleogen	oligotsen	yulpon xal	NP24	Duzovir	Surxondaryo botiqligi paleogen yotqiziqlarini ajratish va korrelyatsiya qilish	Svytalar															
							NP23	Cybicides													
									NP22	Cybicides											
											NP21	Cybicides									
	oligotsen	yulpon xal	NP20	Duzovir	Surxondaryo botiqligi paleogen yotqiziqlarini ajratish va korrelyatsiya qilish	Svytalar															
							NP19	Cybicides													
									NP18	Cybicides											
											NP17	Cybicides									
													NP16	Cybicides							
															NP15	Cybicides					
paleogen	yulpon xal	NP14	Duzovir	Surxondaryo botiqligi paleogen yotqiziqlarini ajratish va korrelyatsiya qilish	Svytalar																
						NP13	Duzovir														
								NP12	Duzovir												
										NP11	Duzovir										
												NP10	Duzovir								
														NP9	Duzovir						
																NP8	Duzovir				
																		NP7	Duzovir		
																				NP6	Duzovir
paleogen	yulpon xal	NP4	Duzovir	Surxondaryo botiqligi paleogen yotqiziqlarini ajratish va korrelyatsiya qilish	Svytalar																
						NP3	Duzovir														
								NP2	Duzovir												
										NP1	Duzovir										
												NP0	Duzovir								
														NP0	Duzovir						
																NP0	Duzovir				
																		NP0	Duzovir		
																				NP0	Duzovir

1-rasm. Surxondaryo botiqligi paleogen yotqiziqlarining stratigrafik sxemasi. (Tuzuvchi: M.M.Kurbonova 2021-y.)

Surxondaryo botiqligi paleogen qatlamlarining o'rganilgan kesmalaridan 20 turdagi qazilma nannoplankton aniqlangan va ularning 4 ta avlodga mansubligi monografik jihatdan tavsiflangan: *Chiasmolithus bidens* (Bramlette et Sullivan 1961) Hay et Mohler 1967, *Chiasmolithus consuetus* (Bramlette et Sullivan 1961) Hay et Mohler 1967, *Chiasmolithus gigas* (Bramlette et Sullivan, 1961) Radomski, *Chiasmolithus solitus* (Bramlette et Sullivan, 1961) Locker, 1968, *Coccolithus formosus* (Kamptner, 1963), *Coccolithus robustus* (Bramlette et Sullivan, 1961), *Cruciplacolithus delus* (Bramlette et Sullivan, 1961) Perch-Nielsen, 1971, *Reticulofenestra umbilica* (Levin 1965) Martini et Ritzkowski, *Coccolithus umbilicus* Levin, 1965, *Fasciculithus involutus* Bramlette et Sullivan, 1961, *Heliolithus kleinPELLI* Sullivan, 1961, *Rhabdosphaera inflata* Bramlette et Sullivan, 1961, *Istmolithus recurvus* Deflandre, 1954, *Chiasmolithus oamariensis* (Deflandre) Hay, Mohler et Wade, 1966, *Zycolithus concinnus* Martini, 1961, *Neococcolithus dubius* (Deflandre in Deflandre et Fert, 1965) Black, 1967, *Sphenolithus moriformis* (Browman et Stradner, 1960) Bramlette et Wilcoxon, 1967, *Corannulus germanicus* Stradner, 1962, *Heliolithus riedelli* Bramlette et Sullivan, 1961, *Discoaster lodoensis* Bram. et Sull. 1954, *Reticulofenestra bisecta* Roth, 1970.

Paleogen davridagi ohakli nannoplankton turlarining monografik tavsifi ularning paleogen yotqiziqlaridagi taksonomik mansubligini va stratigrafik oralig'ini aniqlashga imkon berdi. Ular mintaqada geologik izlash va qidiruv ishlari uchun o'rganilayotgan yotqiziqlarga qo'shimcha stratigrafik ma'lumotlar hisoblanadi.

## XULOSA

Dissertatsiya ishi doirasidagi tadqiqotlar asosida quyidagilar xulosa qilindi:

1. Surxondaryo botiqligining paleogen yotqiziqlari uchun birinchi marta nannoplanktonning biozonal sxemasi Anorbuloq-Besharcha, Oqtov (g'arbiy), Guliob, Boysun, Sherobod, kesmalarida va Dasmanog'a, Tag'aybuloq, Janubiy Mirshodi burg'i-quduqlari kern namunalaridan foydalangan holda, ularni batafsil o'rganish asosida tuzilgan.

2. Nannoplankton bo'yicha olingan material Surxondaryo botiqligining paleogen yotqiziqlari svitalarining yosh chegaralarini aniqlashtirish imkonini berdi. Buxoro, givar, oloy, turkiston, rishton va guliob svitalarining yosh chegaralari aniqlandi:

- Buxoro svitasida nannoplankton qoldiqlari (NP-6) zonasiga tegishli (yuqori paleotsenning quyi qismi);

- Givar svitasining quyi qismidagi gilli slanets yotqiziqlarida nannoplankton qoldiqlari (NP-9) zonasi (yuqori paleotsen) uchun xarakterlidir, ya'ni paleotsen va eotsen chegaralari gilli slanets qatlamlari orqali o'tadi;

- Ajratilgan nannoplankton (NP-13) zonasi givar svitasining yuqori qismiga va oloy svitasining quyi qismiga tegishli, ya'ni, ushbu majmua yordamida



mintaqaviy sxemalarda Oloy gorizonti yuqori chegarasidan, quyi eotsenning yuqori chegarasini o'tkazish mumkin;

- Turkiston svitasi nannoplankton qoldiqlari (NP-14), (NP-15) (O'rta eotsen) ikkita zonaga tegishli;

- Rishton svitasi nannoplankton qoldiqlari (NP-16), (NP-17) zonasi (O'rta eotsen);

- Guliob svitasi nannoplankton qoldiqlari – (NP-18-19) zonasi (Yuqori eotsen).

3. O'rganilayotgan hudud nannoplanktonining biozonal sxemasi O'zbekiston va qo'shni hududlari sxemalari va XSSH bilan mintaqaviy o'zaro bog'liqligi amalga oshirildi (korrelyatsiya qilindi).

4. Nannoplanktonning 20 ta turi birinchi monografik tasnifida Surxondaryo botiqligidagi paleogen yotqiziqlarining faunistik hususiyatlarini aniqlab beradi.

5. Surxondaryo botiqligi paleogen yotqiziqlarining tuzilgan stratigrafik sxemasi ilgari amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirish va nannoplankton bo'yicha belgilangan biozonalar asosida hududning stratigrafik asosini yangilaydi.

6. Ishlab chiqilgan sxema O'zbekistonning qo'shni hududlari sxemalari va Xalqaro stratigrafik shkala bilan mintaqaviy bog'liqligi korrelyatsiya qilindi.

7. Paleogen qatlamlari stratigrafiyasining tuzilgan sxemasi muhim ahamiyatga ega va yonuvchi slanetslar, fosforitlar, neft va gazlarni aniqlash bo'yicha geologik qidiruv ishlari samaradorligini oshirish uchun tavsiya etiladi.



**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.24/30.12.2019.GM.41.01 ПРИ ИНСТИТУТЕ ГЕОЛОГИИ И  
РАЗВЕДКИ НЕФТЯНЫХ И ГАЗОВЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА  
ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

**КУРБОНОВА МОХИГУЛ МАМАСАЛИЕВНА**

**СТРАТИГРАФИЯ ПАЛЕОГЕНОВЫХ ОТЛОЖЕНИЙ  
СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ВПАДИНЫ ПО ОСТАТКАМ  
НАННОПЛАНКТОНА**

**04.00.05–Палеонтология и стратиграфия**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ГЕОЛОГО-МИНЕРАЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент-2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по геолого-минералогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2021.1.PhD/GM102

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.ing.uz](http://www.ing.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** Кушаков Абдулла Романович  
кандидат геолого-минералогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Хусанов Султонбой Тухтаевич  
доктор геолого-минералогических наук, профессор

Джалилов Гафур Ганевич  
доктор философии (PhD)  
по геолого-минералогическим наукам


**Ведущая организация:** Институт геологии и геофизики имени Х.Абдуллаева


Защита диссертации состоится «28» декабря 2023 г. в 10<sup>00</sup> часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета DSc 24/30.12.2019.GM.41.01 при Институте геологии и разведки нефтяных и газовых месторождений (Адрес: 100164, г. Ташкент, ул. Олимлар, 64-Б; e-mail: [igirnigm@ing.uz](mailto:igirnigm@ing.uz)).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института геологии и разведки нефтяных и газовых месторождений (зарегистрирована за № 4349). (Адрес: 100164, г. Ташкент, ул. Олимлар, 64-Б; [www.ing.uz](http://www.ing.uz)).

Автореферат диссертации разослан «15» декабря 2023 г.  
(реестр Протокола рассылки № 75, 20 октября 2023 г.)



  
Т.Х.Шоймуротов  
Председатель разового Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.г.-м.н., с.н.с.

  
М.Г.Юлдашева  
Ученых секретарь разового Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.г.-м.н., с.н.с.

  
Ф.Г.Долгополов  
Председатель разового Научного семинара  
при разовом Научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.г.-м.н.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире перед геологическими службами ставятся задачи по повышению эффективности геолого-съёмочных и геолого-поисковых работ с целью поиска и при роста запасов месторождений полезных ископаемых для возрастающие требования. В этом плане возрастают требования к различным параметрам, характеризующим залежи месторождений, в том числе тщательная стратификация продуктивных горизонтов и слоев. В связи с этим, зональные схемы с использованием микрофоссилий позволяют разрабатывать обоснованные и дробные стратиграфические схемы палеогеновых образований, что обеспечивает достоверность геологоразведочных работ на различные виды минерального сырья.

В настоящее время в мире для расчленения и корреляции стратиграфических подразделений, изучения состава и условий формирования палеогеновых отложений большое значение имеет монографическое изучение известкового наннопланктона как одной из наиболее важных групп ископаемых организмов. Для решения этих задач осуществляются различные исследования, в том числе: установление границ видового распространения наннопланктонов; определение их таксономического разнообразия и анализ их распространения; оценка биостратиграфического потенциала для межрегиональной корреляции выделенных местных подразделений, что является актуальной проблемой.

В республике особое внимание уделяется развитию научным направлениям, связанных с разработкой и поиском новых месторождений полезных ископаемых, в том числе в палеогеновых отложениях с доказанной продуктивностью. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан определены приоритеты по «обеспечению эффективного и комплексного использования природных и минеральных ресурсов в определенных областях...»<sup>2</sup>. В связи с этим составление биозональной схемы палеогена Сурхандарьинской впадины по наннопланктону с целью детализации местной стратиграфической схемы имеет важное научное и практическое значение для геологических работ.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 г. «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № УП-3578 от 1 марта 2018 г. «О мерах по коренному совершенствованию деятельности Государственного комитета по геологии и минеральным ресурсам Республики Узбекистан», № ПП-4401 от 23 июля 2019 г. «О мерах по дальнейшему совершенствованию геологического изучения недр и реализации Государственной программы развития и воспроизводства минерально-сырьевой базы на 2020-2021 гг.»,

---

<sup>1</sup>Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 г. № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан».

№ ПП-4401 от 28 января 2022 г. «О мерах по коренному увеличению объемов геолого-разведочных работ, привлечению частных инвесторов и передовых зарубежных компаний», № ПФ-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 гг.», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в этой сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан – VIII «Науки о Земле (геология, геофизика, сейсмология и переработка минерального сырья)».

**Степень изученности проблемы.** Обобщение опубликованных и фондовых материалов показывает, что изучением закономерностей исторического развития наннопланктона занимались многие исследователи, в т. ч. А.С.Григорьевич (Кавказ и Крым), Е.М.Богданович (Причерноморье), Е.Г.Гавтадзе (Абхазия), А.А.Салая (Армения), Е.Е.Краева, С.А.Люлева (Черное море), Н.Г.Музылёв (юг России), Н.Г.Музылёв, Е.В.Пижанкова, К.А.Ходжахмедов (Центральная Азия), Н.Г.Музылёв, А.Р.Кушаков (Узбекистан). Разработка детальной стратиграфии палеогеновых отложений по наннопланктону отражена в работах Н.Г.Музылёва, К.А.Ходжахмедова (Туркменистан, Таджикистан), А.Р.Кушакова, Г.Х.Салибаева, Е.В.Пижанковой (Узбекистан).

